



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL  
YANVAR-IYUL**





# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **2988,0** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **105,9 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.






## Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2988,0</b>	<b>232,2</b>	<b>2097,8</b>	<b>658,0</b>
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>956,7</b>	<b>20,1</b>	<b>861,7</b>	<b>74,9</b>
Amudaryo	176,7	0,6	103,2	72,9
Beruniy	189,7	7,3	76,8	105,6
Bo'zotov	48,4	0,2	42,7	5,5
Qorao'zak	74,7	7,4	55,4	11,9
Kegeyli	58,8	4,9	38,8	15,1
Qo'ng'iro't	220,3	107,8	91,2	21,3
Qonliko'l	48,0	0,2	28,5	19,3
Mo'ynoq	82,8	2,9	66,2	13,7
Nukus	155,1	0,2	99,9	55,0
Taxiatosh	161,7	16,4	126,4	18,9
Taxtako'pir	66,0	8,8	49,6	7,6
To'rtko'l	352,1	47,3	207,0	97,8
Xo'jayli	110,0	0,4	76,3	33,3
Chimboy	73,9	0,2	25,8	47,9
Shomanay	26,1	0,2	15,7	10,2
Ellikqal'a	187,0	7,3	132,6	47,1

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 232,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 74,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,2 % punktga kamayib, 7,8 % ni tashkil etdi.

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 48,9 % i yoki 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 75,8 %), To'rtko'l tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 13,4 % i) va Taxiatosh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 10,2 % i yoki 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 29,8 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 70,2 % i to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 107,0 % ni tashkil etgan holda 2097,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



70,2

2022- yil  
yanvar-iyul


68,9

2021- yil  
yanvar-iyul



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (861,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 90,1 %), To'rtko'l tumani (207,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 58,8 %), Ellikqal'a tumani (132,6 mlrd. so'm yoki 70,9 %)ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,0%** ni tashkil etdi yoki **658,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **119,4%** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **100,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2887,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,4%** va **96,6%** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-iyul oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **63,8 %** i yoki **1906,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**8,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **164,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **8,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1137,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **59,7 %** ni tashkil etdi.

**59,7 %**

**31,7 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **604,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **31,7 %** ni tashkil etdi.



# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2988,0</b>	<b>105,9</b>	<b>100,0</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>956,7</b>	<b>114,4</b>	<b>32,0</b>
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	176,7	106,6	5,8
Beruniy	189,7	120,0	6,3
Bo'zotov	48,4	101,3	1,6
Qorao'zak	74,7	76,1	2,5
Kegeyli	58,8	100,5	2,0
Qo'ng'iro't	220,3	89,4	7,4
Qonliko'l	48,0	100,4	1,6
Mo'ynoq	82,8	76,1	2,8
Nukus	155,1	106,5	5,2
Taxiatosh	161,7	90,8	5,4
Taxtako'pir	66,0	103,8	2,2
To'rtko'l	352,1	117,3	11,8
Xo'jayli	110,0	101,8	3,7
Chimboy	73,9	127,7	2,5
Shomanay	26,1	112,4	0,9
Ellikqal'a	187,0	105,1	6,3

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,0 % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,9 % punktga kamayib, 57,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 6,9 % punktga ko'payib, 39,4 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 13,8 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 86,2 % ni tashkil etdi.

## ulushi % da

38,6

15,5

84,5



Yirik qurilish  
tashkilotlari

2021- yil  
yanvar-iyul

13,8


86,2



Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

2022- yil  
yanvar-iyul


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 17,0 % punktga kamaydi va 13,9 % ni tashkil etdi. Qolgan, 86,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 17,0 % punktga ko'paydi.



# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul oylari



ulushi % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
(61) 222-75-91**

